

ILM-FAN VA JAMIYAT INTEGRATSIYASI

Mirmuxsin Kamoldinovich G'apurov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada soha rivoji hamda ilm-fan va jamiyat integratsiyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jamiyat, ilm-fan, qomusiy, integratsiya, globallashuv, nazariya va amaliyot

INTEGRATION OF SCIENCE AND SOCIETY

Mirmukhsin Kamoldinovich Gapurov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: In accordance with the priority tasks for the socio-economic development of our country, the fundamental revision of the content of personnel training, the training of highly educated specialists at the level of international standards is considered as an urgent issue of today. This article talks about the development of the field and the integration of science and society.

Keywords: society, science, encyclopedia, integration, globalization, theory and practice

Jamiyat uzoq asrlardan buyon ilm-fan, madaniyat va ma'rifat orqali taraqqiy etib bormoqda. U o'zining taraqqiyot yo'li davomida turli sivilizatsiyalar va tuzumlarni boshidan kechirdi. Turli sohalarga oid mutaxassis kadrlar va qomusiy olimlarni tarbiyaladi. Ular o'z vaqtida jamiyat rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Jamiyatning ilg'or va iqtidorli a'zolarining sa'y-harakatlari bilan ilm-fan paydo bo'ldi. Ularning aql-zakovati chegara bilmadi. Qadimgi yunon olimlarining oddiy tajribalaridan ilm-fan paydo bo'ldi. So'ngra Sharqda takomillashib bordi va uning nazariyalari paydo bo'ldi. Ilm-fan keyinchalik jamiyatga xizmat qila boshladi hamda ularning og'irini yengil qildi. Shu bilan birga jamiyat a'zolarining o'ziga qaratilgan, ularning hayotiga xavf soluvchi kashfiyotlar ham amalga oshirildi-ki, natijada ilm-fanning jamiyat bilan integratsiyasi kuchayib bordi.

Insonga aqldek buyuk ne'mat berilganligi tufayli ilm-fan va jamiyat integratsiyasini o'z izmiga soldi. Davrlar o'tishi bilan ilm-fan taraqqiy etishi oqibatida

xilma-xil tarmoqlarga bo'linib ketdi. Ilm-fanning har bir sohasi taraqqiy etdi, uning jamiyat bilan integratsiyasi yanada kuchaydi va jamiyat manfaatlariga xizmat qila boshladi. Jamiyat a'zolari undan turli maqsadlarda foydalandi va foydalanmoqda.

XIX va XX asrlar ilm-fan taraqqiyoti va uning jamiyat bilan integratsiyasida ulkan muvaffaqiyatlar davri bo'ldi. Yangidan-yangi ilm-fan sohalari paydo bo'ldi va rivojlandi. Ushbu asrlarni ilm-fan taraqqiyoti va uning jamiyat bilan integratsiyasidagi alohida ahamiyatli davrlar deyish mumkin. Bu davrlarda ilm-fanning rivojlanishi yangidan-yangi texnikalarni paydo bo'lishiga olib keldi. Bu texnikalar inson sivilizatsiyasining qisqa davrida aqlbovar qilmas darajada oddiqlikdan murakkablikka intildi va yuksak darajada rivojlandi.

Hozirgi paytda ilm-fan va bunga yana qo'shimcha ravishda texnikaning jamiyat bilan integratsiyasi shunchalik kuchayib ketdi-ki, natijada har bir jamiyat a'zosi yer sharining har qanday nuqtasida ro'y berayotgan voqea-hodisadan xabardor. Bu integratsiyaga ilm-fanning tobora yangi sohalari kelib qo'shilishda davom etmoqda. Bu bilan jamiyatni yanada rivojlanishiga katta yo'l ochilmoqda.

Insoniyat taraqqiyot yo'lida o'z ilmiy va ijodiy izlanishlari bilan dunyoni o'zgartirdi. Kashfiyotchi hamda ijodkor sifatida esa o'zligini namoyon etdi. Izlanishlar asosida paydo bo'lgan ilm keyingi avlod ilmiy va ijodiy taraqqiyoti uchun muhim manbaa vazifasini bajardi. Ushbu jarayonning avloddan avlodga o'tib borishini ta'minlovchi ilm mahsuli sifatida yozuv hamda texnika yutuqlari beminnat xizmat qilganini ham unutmash kerak.

Bugungi kunda ko'plab olimlar ilm-fanning nazariy va amaliy masalalarini ilmiy asosda tadqiq etmoqdalar. Bizning nazarimizda nazariy g'oyalarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, kashfiyotlar yaratishda buyuk qomusiy olimlarimiz ilmiy izlanishlariga tayanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ilmiy izlanishlar jarayonida shaxs yoki jamoa jamiyat taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanadi hamda uning rivojiga hissa qo'shadi.

Ijod va uning barcha turlari haqidagi ilmiy bilimlarning rivoji uning mohiyatiga nisbatan turlicha falsafiy talqinlarning shakllanishiga olib kelgan bo'lsa, ijodiy faoliyat doirasida erishilgan ilmiy izlanishlarga tayangan holda uning mazmuniga aniqlik kiritish, aniq asoslangan ta'rifni yaratishga erishiladi.

Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bugungi kunda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan eng asosiy omillardan biridir.

Mamlakatning taraqqiyoti va istiqbolini belgilab beradigan vazifalar, avvalo, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda va davlat dasturlarida o'z ifodasini topadi. Yo'l xaritalari tuzilib, ular asosida muhim ishlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Xo'sh, integratsiya borasida ushbu huquqiy asoslar nimalardan iborat?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoniga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasi" tasdiqlandi. Mazkur hujjat oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan. Bir so'z bilan aytganda, konsepsiya O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining bosh maqsadi sifatli ta'limni joriy etish orqali malakali kadrlarni tayyorlash va bu orqali mavjud sohalarni har tomonlama yetuk, izlanuvchan kadrlar bilan ta'minlagan holda rivojlantirishga erishishdan iborat.

Talab va takliflar, shuningdek, ehtiyojlar ham ortgan, kuchli raqobat muhiti yuzaga kelgan hozirgi paytda Oliy ta'lim tizimida ana shu raqobat muhitiga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi bosh maqsad sifatida qaralmoqda.

Talaba qachon raqobatbardosh mutaxassisga aylanadi? Qachonki, oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi mustahkam, jahon andozalari va zamon talablariga javob beradigan darajada bo'lsa, professor-o'qituvchilar o'quv jarayonlarini innovatsion texnologiyalar va yangi avlod o'quv adabiyotlari vositasida olib borsa, amaliyotlari sifatli tashkil etilsagina ko'zlangan natijaga erishiladi. O'z navbatida bu muhitda shakllangan mutaxassis kadrlar ish joylariga yangicha ruh, yangi qon, rivojlantiruvchi g'oya sifatida kirib boradi hamda uzoq yillik tajriba bilan birlashib ko'zlangan maqsadlarga erishadi.

Ulug' ijodkor, ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur", - degan hikmati bugungi kun uchun aytilganday. Bugun ham katta qadr-qiyamatga egadir.

Biz dunyoga yuz tutyapmiz. Dunyo bilan tenglashishga harakat qilayapmiz. Demak, dunyoviy bilim va tajribalarni o'rganishimiz shart.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining rivoji barcha sohalarda taraqqiyotning asosi bo'lib xizmat qiladi. Birinchi navbatda, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida tub burilish yuz beradi, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhiti shakllanib, son salmog'iga emas, balki ta'lim sifati samaradorligiga e'tibor kuchayadi. Zamonaviy yangi avlod o'quv adabiyotlari yaratiladi. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi va malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari ortadi. Natijada tayyorlangan raqobatbardosh mutaxassis kadrlar nafaqat Vatanimiz taraqqiyoti uchun balki, insoniyat taraqqiyoti uchun ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”, 2019-yil 29-oktabr, № URK, - 576. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PF-5544-sonli Farmoni [www. lex.uz](http://www.lex.uz).